



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL TA'LIM EHTIYOJLARINI ANIQLASH MEZONLARINING PEDAGOGIK VA RAQAMLI DIAGNOSTIK ASOSLARI

UDK: 37.015.31:004

Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
"Matematika" kafedrasida o'qituvchisi

ORCID: 0009-0006-8092-5557

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashning pedagogik mohiyati hamda raqamli diagnostikaning nazariy asoslari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Individual ehtiyojlarni aniqlashning kognitiv, motivatsion, operatsion va refleksiv mezonlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va prognozlash imkonini beruvchi diagnostik mexanizmlar konseptual jihatdan yoritilgan. Raqamli diagnostika vositalari asosida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishning bosqichli modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli diagnostika vositalari o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash hamda ta'lim jarayonini optimallashtirishda samarali didaktik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: individual ta'lim ehtiyojlari, pedagogik diagnostika, raqamli diagnostika, individuallashtirilgan ta'lim, adaptiv ta'lim, kognitiv rivojlanish, ta'lim analitikasi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical essence and theoretical foundations of digital diagnostics for identifying students' individual educational needs based on a systematic approach. Cognitive, motivational, operational, and reflective criteria are substantiated from a scientific and pedagogical perspective as key indicators of individual learning needs. The conceptual mechanisms of digital diagnostics that enable the analysis and prediction of academic performance within a digital learning environment are examined. A stage-based model for forming individual learning trajectories using digital diagnostic tools is developed. The findings confirm that digital diagnostics serves as an effective didactic instrument for optimizing the educational process and supporting individualized learning.

Key words: individual educational needs, pedagogical diagnostics, digital diagnostics, individualized learning, adaptive learning, cognitive development, learning analytics.

Аннотация: В статье на основе системного подхода проанализированы педагогическая сущность и теоретические основы цифровой диагностики при выявлении индивидуальных образовательных потребностей учащихся. С научно-педагогических позиций обоснованы когнитивные, мотивационные, операционные и рефлексивные критерии определения индивидуальных потребностей обучающихся. Раскрыты концептуальные механизмы цифровой диагностики, обеспечивающие анализ и прогнозирование образовательных результатов. Разработана поэтапная модель формирования индивидуальной образовательной траектории на основе цифровых диагностических инструментов. Результаты исследования подтверждают, что цифровая диагностика является эффективным дидактическим средством оптимизации образовательного процесса и поддержки индивидуализированного обучения.

Ключевые слова: индивидуальные образовательные потребности, педагогическая диагностика, цифровая диагностика, индивидуализированное обучение, адаптивное обучение, когнитивное развитие, образовательная аналитика.

KIRISH

Ta'limni raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi pedagogik faoliyat mazmuni hamda diagnostik mexanizmlarni tubdan yangilashni talab etmoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasining asosiy tamoyillaridan biri – ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlari, bilish imkoniyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda individual ta'lim muhitini shakllantirishdan iborat. Individual ta'lim ehtiyojlari pedagogik kategoriya sifatida o'quvchining mavjud bilim darajasi, bilish faoliyati xususiyatlari, o'zlashtirish sur'ati hamda o'quv motivatsiyasining integrativ tavsifini ifodalaydi. Ushbu ehtiyojlarni aniqlash pedagogik diagnostikaning markaziy



vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki aynan diagnostik natijalar asosida ta'lim mazmuni, metodlari va vositalari moslashtiriladi. An'anaviy diagnostika vositalari ko'pincha statik natijalarni aks ettiradi, bu esa o'quvchining rivojlanish dinamikasini to'liq baholash imkonini cheklaydi. Raqamli diagnostika esa o'quv faoliyatining ko'p parametrlari ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va prognozlash imkonini beradi.

Ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar hamda jamiyatning har bir shaxsdan o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishni talab etishi bugungi kunda mazkur mavzuning alohida dolzarbligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ta'lim sifatini oshirmay turib, Yangi O'zbekistonni barpo eta olmaymiz. Yangi avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir".

Ushbu vazifani amalga oshirishda har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish muhim omil hisoblanadi. Individual ta'lim ehtiyojlari tushunchasi so'nggi yillarda pedagogika nazariyasi va amaliyotida markaziy o'rinlardan birini egallamoqda. Mazkur tushuncha o'quvchining bilim olishga bo'lgan shaxsiy talabi, uning rivojlanish xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos ta'lim muhitini yaratish zaruratini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash masalasi pedagogika nazariyasida shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. L.S. Vygotskiy inson psixik rivojlanishini ijtimoiy muhit va ta'lim ta'siri orqali izohlab, yaqin rivojlanish zonasi tushunchasini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'quvchining real va potensial rivojlanish darajasi o'rtasidagi farq pedagogik diagnostika uchun muhim mezon hisoblanadi. Mazkur yondashuv individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashning nazariy poydevorini tashkil etadi.

B.S. Blum tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi o'quv natijalarini kognitiv darajalar asosida tasniflash imkonini beradi. Ushbu model o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich baholash hamda individual rivojlanish darajasini aniqlashda samarali mezon vazifasini bajaradi.

N.F. Talyzina esa bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish nazariyasini ishlab chiqib, o'quv faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilishning didaktik mexanizmlarini asoslab bergan. Bu yondashuvlar individual diagnostikaning operatsion va refleksiv jihatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli diagnostika va ta'lim analitikasi alohida o'rin egallaydi. G. Siemens tomonidan ilgari surilgan learning analytics konsepsiyasi ta'lim jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

R. Ferguson ta'lim analitikasining rivojlanish tendensiyalarini yoritib, raqamli muhitda individual o'quv trayektoriyalarini prognozlash mexanizmlarini asoslab bergan. Ushbu yondashuvlar raqamli diagnostikaning ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston pedagogika amaliyotida ham individual va differensial yondashuv masalalari faol tadqiq etilmoqda. M. Qurbonova individual ta'limni innovatsion o'qitish usuli sifatida talqin qilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning metodik asoslarini ochib bergan.

D. Saidova shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mohiyatini yoritib, individual ehtiyojlarni aniqlash va qondirishning amaliy mexanizmlarini ko'rsatgan.

M. Akhmadaliyeva esa boshlang'ich ta'limda differensial yondashuvni sun'iy intellekt asosida tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Inklyuziv ta'lim doirasida individual ehtiyojlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

M. Rixsibayevna maktabgacha ta'lim jarayonida inklyuziv yondashuvning pedagogik va tashkiliy yo'nalishlarini asoslab bergan.

G. Alimova inklyuziv ta'limda oila va jamoatchilik hamkorligining rolini yoritgan. Zenodo platformasida e'lon qilingan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish" nomli ishda esa maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashning pedagogik va raqamli asoslarini kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqish zaruratini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, diagnostik testlar, so'rovnoma, suhbat hamda o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish orqali to'plandi. O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashda kognitiv, motivatsion, operatsion va refleksiv mezonlarga asoslangan maxsus diagnostik vositalar qo'llanildi. Raqamli ta'lim platformalaridan olingan analitik

ma'lumotlar, jumladan, topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolar dinamikasi va faollik ko'rsatkichlari ham empirik baza sifatida xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi, statistik qayta ishlash usullari hamda taqqoslama tahlil qo'llanildi. Natijalar o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va differensial ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan interpretatsiya qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Individual ta'lim ehtiyojlarini amalga oshirishda differensial va individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Differensial yondashuv o'quvchilarni qiziqishlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratishni nazarda tutsa, individual yondashuv har bir o'quvchi bilan alohida ishlashni taqozo etadi. Amaliyotda mazkur yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Dastlab o'quvchilarning individual xususiyatlari diagnostika qilinadi, so'ngra ular o'xshash ehtiyojlar asosida guruhlashtiriladi va har bir guruh uchun mos metodika tanlanadi. Ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt vositalari muhim rol o'ynaydi.

Individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishning eng samarali usullaridan biri – har bir o'quvchi uchun individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishdir. Bu jarayon o'quvchining boshlang'ich bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyingi bosqichda o'quvchi bilan hamkorlikda qisqa, o'rta va uzoq muddatli ta'lim maqsadlari belgilanadi. So'ngra maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, topshiriqlar va loyihalar tanlanadi, o'qitish metodlari, vositalari hamda shakllari aniqlashtiriladi. Yakuniy bosqichda erishilgan natijalar tahlil qilinadi va keyingi bosqichlar rejalashtiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual yondashuv hayotiy zarurat hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi har bir bolaning, jumladan, maxsus ehtiyojli bolalarning teng imkoniyatlar asosida sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim sharoitida individual ta'lim ehtiyojlarini amalga oshirish uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari va materiallari, maxsus pedagogik texnologiyalar va vositalar, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati hamda ota-onalar va mutaxassislar o'rtaidagi samarali hamkorlik zarur.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Adaptiv ta'lim platformalari har bir o'quvchining bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atiga mos ravishda topshiriqlarni taqdim etadi. Masalan, Khan Academy Kids, Google Assistant, Smart Boards kabi texnologik vositalar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan holda ta'lim berish imkonini beradi. Ushbu vositalar orqali o'quvchilar o'z sur'atlarida o'rganish, murakkab mavzularni takroran ko'rib chiqish va o'z bilimlarini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Individual ta'lim ehtiyojlarini samarali qondirishda turli mutaxassislarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog, logoped va boshqa mutaxassislar birgalikda faoliyat yuritishi lozim. Multidissiplinar hamkorlik har bir bolaning ehtiyojlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni qondirishning eng maqbul yo'llarini belgilash imkonini beradi. Bunday yondashuv, ayniqsa, murakkab ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda samarali hisoblanadi.

Individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va qondirishda ota-onalarning roli beqiyosdir. Ota-onalar bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va muammolari haqida eng to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ular bilan samarali hamkorlik qilish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar faol ishtirok etgan ta'lim jarayonida bolalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, ular maktabga va o'qishga ijobiy munosabat bildiradi. Shu bois zamonaviy maktablar ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli shakllarini – ochiq darslar, treninglar, maslahatlar hamda hamkorlikdagi loyihalarni keng qo'llamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash pedagogik diagnostikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Individual ehtiyojlarni aniqlashning kognitiv, motivatsion, operatsion va refleksiv mezonlari o'quvchining rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Raqamli diagnostika vositalari o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli diagnostika asosida individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Individual ta'lim ehtiyojlarining pedagogik mohiyati ularni o'quvchining shaxsiy rivojlanish manbai sifatida e'tirof etish va shu asosda ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Mazkur yondashuv har bir bolaning o'ziga xosligini qadrlash, uning qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratishni



nazarda tutadi. Individual ta'lim ehtiyojlariga asoslangan ta'lim jarayoni har bir o'quvchining o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishiga hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Bu esa bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rixsibayevna, M. (2025). Bolalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga inklyuziv yondashuv asosida jalb etishning pedagogik va tashkiliy yo'nalishlari. Kokan SPI. Journal of Scientific Reporting.
2. Saidova, D. (2025). Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mohiyati va tamoyillari. Исследования в области технических наук в Узбекистане.
3. Qurbonova, M. (2023). Individual ta'lim – innovatsion o'qitish usuli. Chirchiq davlat pedagogika universiteti.
4. Akhmadaliyeva, M. (2025). Yangi pedagogik texnologiyalar va AI asoslari asosida boshlang'ich ta'limda differensiallangan yondashuvni tatbiq etish. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish (2026). Zenodo.
6. Alimova, G. (2023). Inklyuziv ta'lim jarayonida oila, jamoatchilikning o'rni. CyberLeninka.
7. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005.
8. Блум Б.С. Таксономия образовательных целей. – Москва, 1986.
9. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. – Москва, 1984.
10. Siemens G. Learning Analytics and Educational Data Mining. – 2013.
11. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers and Developments. – 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.